

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti magistri

Normurodova Nafosat Baxtiyor qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalar bilimini nazorat qilish, baholash tizimidagi islohotlar va ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi va amaliyotga tadbiiq qilish haqida fikr-mulohazalar bayon etish bilan birgalikda baholash tizimi haqida hsm bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, oliy ta'lim, baholash, ta'lim-tarbiya, ta'lim sifati, samaradorligi, baholash shkalasi, qiziqish xususiyati;

Abstract: This article discusses the reform of the assessment system of higher education institutions and the study of foreign best practices in improving the quality and efficiency of education, the introduction and implementation of international standards along with the description, the evaluation system is also described.

Keywords: education system, higher education, assessment, education, quality of education, efficiency, assessment scale, feature of interest;

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali mutaxassislar va yetuk kadrlarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan talabalarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifati oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish

yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi yangi nizom ishlab chiqiladi.

Mazkur hujjatda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlashi lozimligi belgilangan.

Bunda asosiy e'tibor baholash tizimi va mezonlarini uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlariga muvofiqlashtirish, ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan, muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etish hamda semestr yakuni bo'yicha akademik qarzdor talabaning qayta topshirishi mumkin bo'lgan fanlar sonini belgilashga va ularni topshirish muddatini o'zgartirishga qaratiladi.

Talabalar bilimini baholash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida amalga oshirilgan baholash mezoni haqida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'ida baholash tizimini haqida tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda baholik va ballik tizimda baholash tizimlar haqida aniq tavsiyalar berilgan. Jumladan:

Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish					
JADVALI					
5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71

4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Oliy ta'limda talabalar o'zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash

JADVALI

Taklif etilayotgan O'zbekiston tizimi	Rossiya tizimi (MDU)*	Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS — European Credit Transfer System)	Amerika tizimi (A- F)	Britaniya tizimi (%)	Yaponiya tizimi (%)	Koreya tizimi (%)	O'zbekiston tizimi (%)
"5"	"5"	"A"	"A+"	70 — 100	80 — 100	90 — 100	90 — 100
			"A"				
			"A-"	65 — 69			
"4"	"4"	"B"	"B+"	60 — 64	70 — 79	80 — 89	70 — 89,9
			"B"	50 — 59			
		"C"	"B-"				
"3"	"3"	"D"	"C+"	45 — 49	60 — 69	70 — 79	60 — 69,9
			"C"	40 — 44			
		"E"	"C-"				
			"D+"			60 — 69	
			"D"				
"D-"							
"2"	"2"	"FX"	"F"	0 — 39	0 — 59	0 — 59	0 — 59,9

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomda talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshirish, oraliq nazorat semestr

davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkazish, oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2-martagacha o'tkazilish, oraliq nazorat turini o'tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanishi, oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanishi, semestr davomida haftasiga 2 akademik soatdan (tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida 4 akademik soatdan) kam bo'lgan fanlar bo'yicha oraliq nazorat turi o'tkazilmasligi, talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab borilishi, talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinishi, yakuniy nazorat turi semestr yakunida (tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fan yakunida) tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkazish, yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli tegishli fan bo'yicha kafedra tomonidan belgilanishi, yakuniy nazorat turi oliy ta'lim muassasasining tegishli fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkazilishi, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida oraliq va yakuniy nazorat turlari obyektiv tizimlashtirilgan klinik sinov yoki obyektiv tizimlashtirilgan imtihon shakllarida o'tkazilishi haqida ham tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Talabalarining bilimini baholashda 5 ba'ho mustaqil xulosa va qaror qabul qila oladigan, ijodiy fikrlay oladigan, mustaqil mushohada yurita oladigan, olgan bilimini amalda qo'llay oladigan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunsa, bilsa, ifodalay olsa, aytib bera hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda qo'yilishi, shuningdek, talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi,

ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho qo'yilishi, talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho qo'yilishi, talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanishi haqida mezonlar ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalar bilimini nazorat qilish semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida olib borilgan islohotlardan baholash tizimida xolisona yondashish lozimigini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI "BAHOLASH FAOLIYATI TO'G'RISIDA"GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA Qonunchilik palatasi tomonidan 2009-yil 22-yanvarda qabul qilingan, Senat tomonidan 2009-yil 27-martda ma'qullangan.
2. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – С. 42-47.
3. ORTIQOV O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //ЭКОНОМИКА. – С.1130-1135.
4. Ахмеджанов М. М., Олимов Ш. Ш. Понятие и потребность духовно-нравственного воспитания //Молодой ученый. – 2010. – №. 11-2. – С. 100-102.
5. Murodova M. M. BO'LAJAK BOSHLANG'ISH SINFI O'QITUVCHILARI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 90-97.